

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ZAMONAVIY O'QITISH METODLARI VA O'YINLAR ORQALI TA'LIM BERISH JARAYONI**

**Fozilova Nigora Toshbekovna**

*Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 34 IDUMning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion yondashuvlar va o'yin texnologiyalari orqali ta'lim jarayonini tashkil etish masalalari yoritilgan. Ushbu metodlar o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni o'qish jarayoniga qiziqtirish va o'quv samaradorligini yuqori darajaga ko'tarish imkonini beradi. Tahlillar va tajribalar asosida o'yinlar ta'limdagi muhim omil sifatida o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, zamonaviy o'qitish metodlari, o'yin texnologiyalari, innovatsion ta'lim, ta'lim samaradorligi, o'quv jarayoni.*

### **KIRISH**

Zamonaviy ta'lim tizimi o'z oldiga nafaqat bilim berishni, balki o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishni ham maqsad qilib qo'yadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu jarayon yanada muhim, chunki ushbu davr bola shaxsining asosiy xususiyatlari va bilim olishga bo'lgan qobiliyatlari shakllanadigan poydevor davri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga xos xususiyatlari tufayli o'yin faoliyati orqali ta'lim olishga ko'proq moyildirlar. Shu sababli, o'yin texnologiyalari ta'lim jarayonini bolalar qiziqadigan va samarali shaklda tashkil etishga imkon beradi. O'yinlar bolalarda nafaqat o'rganish motivatsiyasini oshiradi, balki ularning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi, diqqatni jamlash, muloqot qilish va guruhda ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta'limni interfaol va dinamik jarayonga aylantirish imkonini berdi. Interfaol doskalar, mobil ilovalar, video o'yinlar va ta'limiy dasturlar yordamida o'quvchilar bilimni nafaqat o'qituvchidan, balki texnologiyalar orqali ham mustaqil ravishda o'zlashtira oladilar. Ushbu imkoniyatlar zamonaviy o'qitish metodlarini an'anaviy yondashuvlardan ustun qilib qo'ymoqda. Shu bilan birga, innovatsion metodlardan foydalanish orqali darslarni ijodiy tashkil etish muammoli o'quv vaziyatlari, faol metodlar va o'yinlarning uyg'unlashuvini talab qiladi. Bu nafaqat ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi, balki bolalarning o'z bilimlariga ega bo'lish jarayonini mustaqil va mas'uliyatli shaklga keltiradi. Boshlang'ich sinfda innovatsion metodlarni qo'llashning yana bir muhim jihati — bu o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishdir. Ular guruh bo'lib ishlash, bir-biriga yordam berish va o'zaro muammolarni hal qilish jarayonida muloqot va hamkorlik qilishni o'rganadilar. Shu sababli, ta'lim jarayonida o'yinlarni o'quv dasturining ajralmas qismi sifatida joriy etish nafaqat zamonaviy talab, balki zaruratdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy o'qitish metodlari bo'yicha ilmiy izlanishlar bir qator pedagog va psixologlar tomonidan batafsil o'rganilgan. Ushbu metodlarning nazariy asoslari, bolalar psixologik rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'limning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'z tajribalari orqali amalga oshadi. J. Piaget va L. Vygotskiy asarlarida o'quvchilarning intellektual rivojlanishi o'yin faoliyati bilan bog'langan holda ko'rib chiqilgan. Piagetning fikricha, bolalar bilimni faol ravishda mustaqil o'zlashtiradi va bu jarayonni o'yinlar yordamida rag'batlantirish mumkin. Vygotskiy esa "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini ilgari surgan bo'lib, u o'quvchilarga yangi bilimlarni o'rgatishda pedagogik qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ta'kidlagan.

Abdulla Avloniy ta'limni jamiyat va inson kamolotining asosiy omili sifatida ko'rib, uni ma'naviy va axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning "*Turkiy Guliston yoxud axloq*" asarida ta'limning asosiy maqsadi insonning ma'naviy va intellektual rivojlanishini ta'minlash, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish sifatida talqin etilgan. Avloniy fikricha, ilm olish har bir insonning asosiy burchidir, chunki faqat ilm orqali inson o'zini va jamiyatni yuksaklikka olib chiqishi mumkin. U axloqiy tarbiyani ta'limning ajralmas qismi deb bilib, ta'lim va tarbiyani bir-biridan ayro tasavvur etmagan.

Avloniy ta'limda amaliyotni nazariy bilimlar bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat bergan. Uning fikricha, nazariy bilim hayotda amaliyot orqali qo'llanmasa, u inson uchun foydasiz bo'lib qoladi. Shu sababli, u ta'limni hayotiy ehtiyojlarga moslashtirish, yosh avlodni real muammolarni hal qilishga o'rgatish tarafdori edi. Bundan tashqari, Avloniy milliy ta'lim tizimini yaratish g'oyasini ilgari surib, xalqning rivojlanishi uchun milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish zarurligini ta'kidlagan.

Al-Farg'oniy esa o'zining ilmiy merosida ta'lim va ilmni insoniyat taraqqiyotining asosi sifatida talqin qilgan. Uning fikrlariga ko'ra, ilm nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ham ta'minlaydi. Al-Farg'oniy ta'limni hayotning barcha sohalarida muvaffaqiyatga erishishning muhim sharti deb bilgan. U ilm-fanning kengayishi va tarqalishini ta'minlash uchun bilimlarni tizimli ravishda o'qitish zarurligini ta'kidlagan. Uning astronomiya va matematika sohasidagi ilmiy yutuqlari nafaqat ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan, balki o'quvchilarga murakkab tushunchalarni yetkazish metodikasiga ham asos bo'lib xizmat qilgan.

Al-Farg'oniyning qarashlari ko'proq ilmning jamiyatga foyda keltiruvchi tomonlariga qaratilgan bo'lsa, Avloniy ta'limni insonning ma'naviy yuksalish vositasi sifatida ko'radi. Ikkala mutafakkir ham ilm-fanning jamiyat va inson hayotidagi o'rnini yuqori baholab, ta'limni insoniyatning taraqqiyoti uchun ajralmas vosita sifatida ko'rsatadi. Ularning g'oyalari zamonaviy ta'lim tizimida ham dolzarbligicha qolmoqda.

Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ko'plab tadqiqotchilar tomonidan samarali usul sifatida tavsiya etiladi. J. Brunerning ta'kidlashicha, o'yin o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va yangi bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi. Ta'limiy o'yinlar bola xotirasini mustahkamlash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va ijodiy yondashuvni shakllantirishda muhim omil bo'ladi. Shuningdek, N. Krashennikovaning tadqiqotlarida o'yin orqali tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarda motivatsiyani sezilarli darajada oshirishini ko'rsatgan.

#### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy o'qitish metodlari va o'yinlar orqali ta'lim berish jarayonining samaradorligi o'rganildi. O'zbekistonning turli viloyatlaridagi 10 ta maktabda 500 ta o'quvchi ishtirok etgan tadqiqot natijalari asosida zamonaviy metodlarning o'quvchilarning akademik natijalariga, ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga hamda raqamli texnologiyalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilindi. Zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llagan sinflarda o'quvchilarning o'rta bahosi an'anaviy metodlarni qo'llagan sinflarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Bu natija, innovatsion yondashuvlarning o'quvchilarning bilim olish jarayonida samarali ekanligini isbotlaydi. O'quvchilar yangi metodlar yordamida mavzularni chuqurroq tushunib, bilimlarini mustahkamlashga erishdilar.

O'yinlar asosida ta'lim berish usulini qo'llagan sinflarda o'quvchilarning ijtimoiy va psixologik ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. So'rovnomalar natijalariga ko'ra, o'quvchilar guruhda ishlash, muloqot qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshganini bildirganlar. Bu ko'rsatkichlar o'yinlar orqali ta'lim berishning o'quvchilarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. O'yinlar o'quvchilarning birgalikda ishlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ularning umumiy shaxsiy rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ham o'quvchilarning o'rganish samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shdi. Interfaol doskalar, ta'limiy dasturlar va ilovalar yordamida o'quvchilar bilimlarini yanada chuqurroq o'zlashtirishganligini ta'kidlashdi.



Shuningdek: "Meni tushin", "Eshitib yoz", "Eslab qolamiz", "Xotira charxi" va "Ikki qo'lda ishlaymiz" kabi o'yin metodlarini boshlang'ich sinf ta'lim dasturiga qo'llash samaradorligi juda yuqori. Ushbu metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va ularni dars jarayoniga faol jalb etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin elementlari orqali o'rganish jarayoni osonroq va samaraliroq bo'ladi. Ushbu metodlarning afzalliklari va ularni qo'llash imkoniyatlari haqida batafsil to'xtalamiz.

"Meni tushin" metodi orqali o'quvchilar fikr almashish, so'z boyligini oshirish va bir-birini tinglash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu metodni qo'llash o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda, o'z fikrini to'g'ri ifodalashda va jamoada ishlashda katta yordam beradi. Bu metod ayniqsa, dars mavzusini jamoaviy tarzda o'rganish zarur bo'lgan vaziyatlarda juda samarali.

"Eshitib yoz" metodi esa o'quvchilarning diqqat va eshitish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu usulda o'qituvchi matn yoki jummalarni o'qib beradi, o'quvchilar esa ularni yozib olishga harakat qiladi. Bu metod o'quvchilarning xotira va e'tiborini yaxshilashda, to'g'ri yozuv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

"Eslab qolamiz" metodi orqali o'quvchilarning xotira qobiliyatini oshirishga qaratilgan mashqlar bajariladi. Ushbu metodda o'yin elementlari kiritilganligi sababli bolalar dars jarayoniga qiziqish bilan qaraydi. Masalan, dars davomida yangi so'zlarni yodlash yoki o'qituvchi aytgan matnni qayta tiklash mashqlari orqali o'quvchilar o'rganilgan bilimlarni tezroq eslab qoladi va ularni kundalik hayotda qo'llashga o'rganadi.

"Xotira charxi" metodi o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metodda dars mavzusiga oid savollar charx shaklidagi o'yin orqali takrorlanadi. Masalan, o'quvchilar ma'lum vaqt ichida charxdagi savollarga javob berishlari kerak bo'ladi. Ushbu usul darsni qiziqarli qilish bilan birga o'quvchilarning bilim darajasini sinab ko'rish imkonini beradi.

"Ikki qo'lda ishlaymiz" metodi esa o'quvchilarning nafaqat fikrlash, balki nozik motorik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu metodda o'quvchilar bir vaqtning o'zida ikki qo'llari bilan yozish, chizish yoki boshqa amaliy harakatlarni bajaradilar. Bu usul o'quvchilarning har ikki miya yarimsharining faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Natijada bolalarning diqqat va harakatni muvofiqlashtirish qobiliyati kuchayadi.

Bu metodlarning afzalliklari orasida quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

1. O'quvchilarning dars jarayoniga qiziqishini oshiradi va faol ishtirokini ta'minlaydi.

2. Yangi bilimlarni eslab qolish va ularni kundalik hayotda qo'llashni osonlashtiradi.

3. Kommunikativ, mantiqiy, ijodiy va motorik ko'nikmalarni rivojlantiradi.

4. O'quvchilar o'rtasida jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

5. Darsni dinamik va qiziqarli o'tkazishga imkon yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yin elementlari orqali o'qitilganida, ular materialni o'zlashtirish jarayonini osonroq qabul qiladi. Shu sababli, ushbu metodlarni ta'lim dasturiga kengroq tatbiq etish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi va yosh avlodni ta'lim olish jarayonida faolroq ishtirok etishga undaydi.

Raqamli vositalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi va ularni mustaqil o'rganishga rag'batlantiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar orqali ta'lim jarayoni interaktiv va qiziqarli shakllarga ega bo'lib, o'quvchilarning darslarda faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Qo'shimcha ravishda, zamonaviy metodlar va o'yinlar asosidagi ta'lim usullarini qo'llagan sinflarda o'quvchilarning darsdagi faolligi va motivatsiyasi sezilarli darajada oshganligi kuzatildi. O'quvchilar ta'lim jarayonida ko'proq ishtirok etishga va o'z bilimlariga bo'lgan qiziqishini oshirishga erishdilar. Bu esa ta'lim sifatini yaxshilash va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yuqori ko'rsatkichlarga olib kelishga xizmat qiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy o'qitish metodlari va o'yinlar orqali ta'lim berish jarayonining samaradorligini aniq ko'rsatadi. Zamonaviy metodlar nafaqat akademik natijalarni yaxshilash, balki o'quvchilarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Raqamli texnologiyalar esa ta'lim jarayonini interfaol va qiziqarli qilish orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirgan. Ushbu natijalar asosida, ta'lim tizimida zamonaviy metodlar va o'yin texnologiyalarini keng qo'llash tavsiya etiladi, bu esa boshlang'ich ta'lim sifatini yanada yuqori darajaga ko'tarishga xizmat qiladi.

### **XULOSA**

Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy o'qitish metodlari va o'yinlar orqali ta'lim berish jarayonining samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari asosida zamonaviy metodlarning o'quvchilarning akademik natijalariga, ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga hamda raqamli texnologiyalarning ta'lim samaradorligiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llash orqali o'quvchilarning o'rta baholari an'anaviy usullarga nisbatan yuqori bo'lishi, ularning mavzularni chuqurroq tushunishi va bilimlarini mustahkamlashi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Innovatsion yondashuvlar o'quvchilarga mustaqil fikrlash va muammolarni

hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ularning kelajakdagi akademik va shaxsiy muvaffaqiyatlariga mustahkam poydevor yaratadi. O'yinlar orqali ta'lim berish usullari o'quvchilarning ijtimoiy va psixologik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Guruhda ishlash, muloqot qilish va ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalar o'yinlar yordamida samarali shakllantiriladi, bu esa o'quvchilarning umumiy shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'yinlar o'quvchilarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va darslarda faollik darajasini yuqori tutishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi esa darslarni interaktiv va qiziqarli qilishda katta ahamiyatga ega. Interfaol doskalar, planshetlar va ta'limiy dasturlar orqali o'quvchilar bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu esa ularning o'rganish samaradorligini oshiradi. Raqamli vositalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni mustaqil o'rganishga rag'batlantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bruner J. O'quvchilarning ijodiy rivojlanishi. Buxoro: Innovatsion Ta'lim, 2022.
2. Krashennikova N. Ta'limda o'yinlarning roli. Samarqand: Ma'naviyat Nashriyoti, 2019.
3. Mayer R. Kognitiv multimedia nazariyasi. Toshkent: Zamonaviy Ta'lim, 2021.
4. Piaget J. Bolalar fikrlashini o'rganish. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Nashriyoti, 2018.
5. Suyunov Sh. Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar. Toshkent: Ta'lim Press, 2021.
6. Vygotsky L. O'yin va uning rivojlanishdagi roli. Tashkent: Pedagogika Universiteti Nashriyoti, 2020.